



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “31” oktabr

BUYRUQ № 183

Toshkent sh.

**“Madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini
shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni xalqaro statistika amaliyotini inobatga olgan holda yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 29- sentabrdagi “Madaniyat sohasida statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 35 - son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

Madaniyat sohasida statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Madaniyat statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom (bundan buyon – uslubiy nizom) madaniyat sohasi, asosiy tushunchalar, atamalar va ularning ta'riflari, madaniyat sohasida statistika ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi va ushbu sohadagi rasmiy statistika ma'lumotlarini tashqi foydalanuvchilarga tarqatish maqsadida ishlab chiqilgan.

“Madaniyat statistikasi tizimi YUNESKO – 2009” (2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics (FCS)) qo'llanmasiga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablariga asoslangan va GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi:

madaniyat statistikasi – statistika tarmoqlari muassasalari faoliyatini o'rganuvchi statistika sohasi bo'lib, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari, klub tipidagi madaniyat muassasalari, muzeylar, teatrlar, konsert tashkilotlari, madaniyat va dam olish bog'lari, sirkalar, hayvonot bog'lari, kitob, jurnal va gazeta mahsulotlarini chop etilishini aks ettiradi;

madaniy faoliyat – madaniy mahsulotlarning ijodiy qadriyatini ularning iqtisodiy narxiga qaramasdan aks ettirish yoki yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Madaniy faoliyat o'z-o'zidan oxirgi maqsad bo'lishi yoki madaniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqishga hissa qo'shishi mumkin;

madaniy tadbirlar — madaniy faoliyat sohasidagi madaniy-tomosha tadbirlari, madaniy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlar;

madaniyat xodimi — o'z kasbiy faoliyatini madaniyat tashkilotlarida amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;

madaniyat va san'at muassasalari soni – hisobot davri yakunida faoliyat turlari bo'yicha rasmiy ro'yxatdan o'tgan madaniyat va san'at muassasalari;

ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlar, shuningdek tarixiy shaxslarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasini va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek, tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan, xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio - video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari;

madaniy meros – moddiy madaniyat obyektlari, yodgorliklar, binolar guruhlar va turli xil qadriyatlarga ega bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. Bu hududlar ramziy, tarixiy, badiiy, estetik, etnografik yoki arxeologik va ilmiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin;

madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;

moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qiymatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar;

muzey — muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi;

muzey fondi — muzeyda saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari majmui;

spektakl — jonli ijroda ommaga namoyish etish, o'tkazish sharoitlaridan kelib chiqqan holda statsionar, ko'chma va gastrol spektakli ko'rinishidagi sahna asari;

professional teatr — bu professional guruhni o'z ichiga olgan teatr san'atining ijodiy jamoasi. Professional teatrlar tarmog'iga opera va balet, dramatik, musiqiy, bolalar va yosh tomoshabinlar teatrlari kiradi;

konsert tashkiloti — konsert faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi (filarmoniya, gastrol-konsert, konsert zali) yoki mustaqil jamoani (musiqiy, xor, raqs va boshqalar) tashkil etish bilan shug'ullanadigan madaniyat tashkilotidir;

sirk — bu sirk tomoshalari namoyish etiladigan arena (maneji)ga ega bo'lgan bino bo'lib, vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan sirk artistlari jamoasidan iborat bo'lgan ko'ngilochar tashkilot;

madaniyat va istirohat bog'lari — bu aholi o'rtasida madaniy hordiq chiqarish va jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etuvchi tabiiy va madaniy - rekreatsion hududiy shahar (posyolka, qishloq)ga ega bo'lgan keng qamrovli va ko'p tarmoqli madaniyat muassasasi;

hayvonot bog'lari (zoologiya markazlari) — yovvoyi hayvonlarni ko'rsatish, o'rganish va ko'paytirish maqsadida asirlikda (qafaslarda, kataklarda) yoki yarim erkin (tabiiy muhitga o'xshash sharoitdagi katta maydonlarda) saqlanadigan ilmiy va ma'rifiy muassasalar;

madaniyat va dam olish muassasalari — faoliyatining asosiy yo'nalishi aholiga turli hil ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy, sog'lomlashtirish, ko'ngil ochish xizmatlarini ko'rsatish, badiiy havaskorlik san'atini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat bo'lgan tashkilotdir. U ta'sischi tomonidan an'anaviy xalq amaliy san'atini rivojlantirish, aholining ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish, bo'sh vaqtlarda dam olishni tashkil etishda jamoat ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratiladi;

kinoteatrlar – bu boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan statsionar kinoqurilmalar bilan jihozlangan maxsus bino;

kinoqurilmalar – kameralar soni va kino kengligidan qat'iy nazar, zalda, boshqa xonada yoki maqsadga muvofiq o'rindiqli maydonda o'rnatilgan, filmlarni namoyish qilish uchun uskunalar to'plami (chiptalarni sotmasdan filmlar namoyish etadigan boshqa kinoqurilmalar kiritilmagan);

kinonamoyish – tomoshabinlarga ma'lum bir film dasturini (bir yoki bir nechta) ularning janrini hisobga olmagan holda bir martalik namoyish (faqat pullik kinonamoyishlar hisobga olinadi) qilish;

kitoblar va risolalar soni – yil boshidan beri chop etiladigan matn, tasviriy, notalar varaqasi va kartografik ma'lumotlarni, kartalar to'plamlari va boshqalarni o'z ichiga olgan bosma nashrlar birligi soni;

jurnallar va boshqa davriy nashrlar soni – yil boshidan chop etilgan bosma nashrlar (shu jumladan, davriy chop etiladigan to'plamlar va byulletenlarni qo'shgan holda) soni;

gazetalar soni – barcha hududiy nashriyotlar tomonidan turli vaqt oralig'ida chop etilgan gazetalar nashrlarini o'z ichiga oladi;

tirajlar – bir xil nomdagi nashrlarning jami nusxalari soni ming nusxada;

yillik tiraj – hisobot yilida chop etilgan nashrlarning tirajlari yig'indisi;

gazetalarning o'rtacha bir martalik tiraji – hisobot davrida chop etilgan nashrlar soni (raqamlari) bo'yicha, nashrlarning barcha sonlari (raqamlari) tirajini bo'lish yo'li bilan hisoblanadi;

axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari – takroriy hujjatlar (kitoblar, davriy nashrlar, boshqa hujjatlar, shu jumladan badiiy nashrlar, audiovizual va mashinada o'qiladigan materiallar)ning uyushgan fondiga ega bo'lgan hamda ularni jismoniy va yuridik shaxslarga vaqtincha foydalanish uchun taqdim etadigan axborot, madaniy-ma'rifiy muassasa AKM va ARM mustaqil muassasa, korxona yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi mumkin;

kutubxona fondi – bu uyushgan hujjatlar to'plamidir. Hisob birligida kitobning alohida nusxasi, risolalar, katta hajmli oylik jurnallarning alohida soni, kichik hajmli jurnallar to'plami, yillik gazetalar to'plami, notalar varaqasi, kartografik va badiiy adabiyotlarning alohida nusxalari, shaffof to'plami, audiovizual va mashinada o'qiladigan hujjatlarning alohida nusxalaridir. Kutubxona fondi inventar kitoblarida qo'yidagi sxema bo'yicha hisobga olinadi: hisobot yilining boshida bo'lgan, yil davomida olingan, hisobot yilining oxirida chiqarilgan;

kitob berish – kitobxonga o‘qish zalida yoki obuna vaqtida vaqtincha hujjatning bir nusxasi (kitoblar, davriy nashrlar, boshqa hujjatlar, shu jumladan, badiiy nashrlar, audiovizual va mashinada o‘qiladigan materiallar)ni foydalanish uchun berish;

kitobxon – kutubxona xizmatlaridan foydalanadigan va kutubxonadan tashqarida foydalanish uchun hujjatlarni olish maqsadida kutubxonaga yozilgan shaxs;

foydalanuvchilar soni – obunachilar yoki kitobxonlar soni bo‘yicha amalga oshiriladi. Yil davomida kitob olgan kitobxonlarning umumiy soni yil oxiridagi obunachilar tartib raqami bilan belgilanadi;

foydalanilgan kitoblar – kutubxona fondidan kitobxonlarning foydalanish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkich bo‘lib, kitoblarning yillik sonini yil davomida foydalangan kitobxonlar soniga bolish yo‘li bilan hisoblanadi.

2. Madaniyat va san‘at sohasi faoliyati milliy madaniy merosni asrab-avaylash, ma‘naviy qadriyatlarni aholi tomonidan qabul qilish va tarqatish sohalarini qamrab oladi.

3. Madaniyat va san‘at sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan ixtisoslashgan tashkilot va muassasalarning keng tarmog‘i mavjud bo‘lib: ular muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, konsert tashkilotlari, bosma nashrlar va boshqalar, shuningdek, ushbu faoliyat bilan professional ravishda shug‘ullanadigan xodimlardir.

2-bob. Ma‘lumotlar manbai va uning statistik hisobi

4. Madaniyat statistikasi ma‘lumotlarini shakllantirish uchun Statistika dasturiga muvofiq quyidagilar asos bo‘ladi:

1 madaniyat (bog‘lar) shakli “Hayvonot bog‘lari, botanika bog‘i, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati to‘g‘risidagi hisobot” (yillik), ushbu statistika hisoboti hayvonot bog‘lari, botanika bog‘i, barcha mulkchilik shaklidagi madaniyat va istirohat bog‘lari tomonidan yiliga bir marta taqdim etiladi. Statistika hisobotida quyidagi ko‘rsatkichlar mavjud: dam olish obyektlari soni, attraksionlar soni, tashriflar soni, hayvonot va o‘simlik dunyosi namunalari soni, xodimlar soni va boshqalar.

“Muzey faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar” (*ma‘muriy ma‘lumotlar*) O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tomonidan har yili bir marotaba ma‘muriy hisobot ko‘rinishida, hududlar kesimida taqdim etiladi. Ushbu ma‘muriy ma‘lumot quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: fond eksponatlari turlari, muzey binosining texnik holati, tashriflar soni, ilmiy xodimlar va boshqalar.

“Teatr faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar” (*ma‘muriy ma‘lumotlar*) O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan barcha mulkchilik shaklidagi teatrlarning faoliyati bo‘yicha yillik ma‘muriy hisobot shaklida, hududlar kesimida taqdim etiladi. Ushbu ma‘muriy ma‘lumotlar teatrning moddiy bazasi, tomosha zali sig‘imi, spektakllar soni, tomoshabinlar soni va jami yig‘imlar kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

“Madaniyat markazlari faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar” (*ma‘muriy ma‘lumotlar*) O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan madaniyat markazlari faoliyati bo‘yicha, statistik organlarga yiliga bir marotaba ma‘muriy hisobot shaklida, hududlar kesimida taqdim etiladi. Ushbu ma‘muriy ma‘lumotlar quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: moddiy-texnika bazasi, tadbirlar soni, tashrif buyuruvchilar soni, to‘garaklar, studiyalar, badiiy havaskorlik jamoalari va ishtirokchilar soni va boshqa tegishli ko‘rsatkichlar.

“Konsert tashkiloti faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar” (*ma‘muriy ma‘lumotlar*) O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan barcha mulkchilik shaklidagi konsert tashkilotlari, statsionar va ko‘chma sirkalar faoliyati bo‘yicha yiliga bir marotaba ma‘muriy hisobot shaklida, hududlar kesimida taqdim etiladi. Ushbu ma‘muriy ma‘lumotlar quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: konsertlar soni, tinglovchilar soni, spektakllar va tomoshabinlar soni, doimiy jamoalar soni va boshqa tegishli ko‘rsatkichlar.

“Filmlar ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar” (*ma‘muriy ma‘lumotlar*) Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tomonidan hududlar kesimida yiliga bir marotaba ma‘muriy hisobot shaklida, hududlar kesimida taqdim etiladi. Ushbu ma‘muriy ma‘lumotlar filmlar va boshqa kinomahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, kinoprokat tashkilotlari va kinoteatrlar faoliyati ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ma‘muriy ma‘lumotlar quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: film va boshqa kinomahsulotlar nomi, film va boshqa kinomahsulotlar turi, prokatga chiqarilgan filmlar soni, kinoteatrlar soni va boshqalar.

4-bob. Madaniyat statistikasi ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari

5. Quyida statistika ko‘rsatkichlarini hisoblashda foydalaniladigan usullar keltirilgan.

10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan teatr tomoshabinlari soni

$$N = \frac{Q}{P} \times 10\,000, \quad (1)$$

bu yerda:

N – 10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan teatr tomoshabinlari soni;

Q – yil davomida teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni;

P – yil boshiga jami aholi soni.

**10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan teatr
tomoshabinlari sonini hisoblash bo‘yicha shartli misol**

	Yil davomida teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, <i>ming kishi</i>	Yil boshiga jami aholi soni, <i>ming kishi</i>	10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tomoshabinlari soni
A	1	2	³ (grafa1/grafa2*10 000)
O‘zbekiston Respublikasi	3 170,0	36 799,8	861,4

**Muzeylarga yakka tartibda qatnovlar soni 10 000
aholiga nisbatan**

$$M = \frac{T}{P} \times 10\,000, \quad (2)$$

bu yerda:

M – 10 000 aholiga nisbatan muzeylarga yakka tartibda qatnovlar soni;

T – yil davomida tashrif buyuruvchilar soni;

P – yil boshiga jami aholi soni.

**O‘rtacha bitta kutubxonaga to‘g‘ri keladigan kitob va
jurnallar soni**

$$S = \frac{C}{L} \quad (3)$$

bu yerda:

S – o‘rtacha bitta kutubxonaga to‘g‘ri keladigan kitob va jurnallar soni;

C – yil boshiga, barcha idoraviy kutubxonalarda kitob va jurnallar soni;

L – yil boshiga kutubxonalar soni.

**10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan
kutubxonalar soni**

$$L = \frac{O}{P} \times 10\,000, \quad (4)$$

bu yerda:

L – 10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan kutubxonalar soni;

O – yil boshiga barcha idoraviy kutubxonalar soni;

P – yil boshiga jami aholi soni.

**10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan kutubxonalar
sonini hisoblash bo‘yicha shartli misol**

	yil boshiga barcha kutubxonalar soni, <i>birlik</i>	Yil boshiga jami aholi soni, <i>ming kishi</i>	10 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan kutubxonalar soni
A	1	2	3 (grafa1/grafa2*10 000)
O‘zbekiston Respublikasi	13 046	36 799,8	3,5

**Kutubxonalardagi kitob va jurnallar soni,
10 000 aholiga nisbatan**

$$G = \frac{C}{P} * 10\,000, \quad (5)$$

bu yerda:

G – kutubxonalardagi kitob va jurnallar soni 10 000 aholiga nisbatan;

C – yil boshiga barcha idoraviy kutubxonalarda kitob va jurnallar soni;

P – yil boshiga jami aholi soni.

**O‘rtacha bitta kutubxonaga to‘g‘ri keladigan
foydalanuvchilar soni**

$$K = \frac{E}{L}, \quad (6)$$

bu yerda:

K – o‘rtacha bitta kutubxonaga to‘g‘ri keladigan foydalanuvchilar soni;

E – yil davomida, barcha idoraviy kutubxonalarda foydalanuvchilar soni;

L – yil boshiga kutubxonalar soni.

**O‘rtacha bitta foydalanuvchiga berilgan kitob va
jurnallar soni**

$$L = \frac{C}{M}, \quad (7)$$

bu yerda:

L – o‘rtacha bitta kutubxonaga to‘g‘ri keladigan kitob va jurnallar soni;

C – yil boshiga, barcha idoraviy kutubxonalarda kitob va jurnallar soni;

M – yil boshiga kutubxonalar soni.

O‘rtacha aholiga nisbatan boshiga kinonamoyishlar soni

$$F = \frac{I}{\bar{P}}, \quad (8)$$

bu yerda:

F – O‘rtacha aholiga nisbatan boshiga kinonamoyishlar soni;

I – kinonamoyishlarga tashriflar soni;

$\bar{P}$ – o‘rtacha yillik aholi soni.

**1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan kinoteatr
tomosha zallaridagi o‘rinlar soni**

$$M = \frac{D}{P} * 1000, \quad (9)$$

bu yerda:

M – 1000 aholiga kinoteatr tomosha zallaridagi o‘rinlar soni;

D – yil boshiga kinoteatr tomosha zallaridagi o‘rinlar soni;

P – yil boshiga jami aholi soni.

**Shahar aholisiga nisbatan to‘g‘ri keladigan madaniyat
va istirohat bog‘lari maydoni**

$$AP = \frac{W}{\bar{P}}, \quad (10)$$

bu yerda:

AP – shahar aholisiga nisbatan to‘g‘ri keladigan madaniyat va istirohat bog‘lari maydoni;

W – shaharlar madaniyat va istirohat bog‘larining umumiy yer maydoni;

$\bar{P}$ – shahar aholisining yillik o‘rtacha aholi soni.

5-bob. Statistika ma'lumotlarini tarqatish

6. Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, madaniyat statistikasiga oid ma'lumotlar belgilangan muddatlarda shakllantiriladi:

“Madaniyat va san’at muassasalari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari” to‘g‘risida yillik statistika byulleteni tayyorlanadi va ushbu byulleten O‘zbekiston Respublikasining kutubxona tizimiga kiruvchi muassasalar (axborot-kutubxona markazlari, ta’lim muassasalari huzuridagi axborot-resurs markazlari, ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar va boshqa kutubxonalar), muzeylar, teatrlar, konsert tashkilotlari, sirkar, hayvonot bog‘lari, okeanarium, madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari hamda kino mahsulotlarni ishlab chiqarish to‘g‘risida ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi;

yillik statistika to‘plamlari:

O‘zbekiston raqamlarda;

O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi;

O‘zbekistonda turizm nomli statistika to‘plam orqali bosma shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi.

Bundan tashqari, rasmiy statistika ma'lumotlari quyidagi shakllarda tarqatiladi:

press-revizlar;

axborotnomalar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb saytida tahliliy materiallar.

Rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga, statistika organlari tomonidan shakllantiriladigan rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatish tartibiga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so‘rovlari asosida ham taqdim etiladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

7. Uslubiy nizom statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazishning asosiy bosqichlariga mos keluvchi ketma-ketlikda ifoda etilgan bo‘lib, madaniyat sohasiga oid ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan.

8. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo’yicha namunaviy uslubiy qo’llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-707 11.08. 2021- y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 03.08.2020- y. PQ-4796-son.
3. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 11.09.2023y., PF-158-son
4. O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni 12.09.2008- y. O‘RQ-177-son.
5. Madaniyat statistikasini takomillashtirish bo’yicha uslubiy tavsiyalar, O‘zbekiston qonunchiligidagi o‘zgarishlarni hamda **Yunesko madaniyat statistikasi tizimi 2009** tavsiyalarini inobatga olgan holda.
6. YUNESKO Statistika Institutining rasmiy veb sayti <http://uis.unesco.org/>
7. Belarus Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb sayti <http://www.belstat.gov.by>
8. Qirg‘iz Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb sayti <http://www.stat.kg>